

To'liqinova Xolida To'liqunovna
Nizomiy nomidagi TDPU Dotsent

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA MEHNAT QILISH ODOBINI O'RGATISH

Annotatsiya: Har bir inson u yoki bu kasbni yoki bir necha kasb-hunarni egallashi mumkin, «Bir yigitga qirq hunar ham oz» degan maqolning mazmunida ham bir necha kasbni egallash hayotiy ehtiyoj ekanligiga ishora etiladi. Har bir kasbning, hunarning o'ziga xos mashaqqati va lazzati bor. Uning mashaqqatini matonat tinimsiz izlanish, sabr-toqat bilan yenggan insongina, uning lazzatidan bahra oladi. Kelajakda rohat va farog'atda yashaydi.

Kalit so'zlar: Kasb – hunar, milliy an'analar, ijodkorlik, qobiliyat, fanlararo aloqalar, umum mehnat ko'nikma va malakalari, texnologiya.

Аннотация: Каждый человек может освоить одну или несколько профессий, и пословица «Одному молодому человеку сорока профессий мало» также говорит о том, что овладение несколькими профессиями является жизненной необходимостью. Каждая профессия и ремесло имеют свои сложности и удовольствия. Только тот, кто преодолевает трудности с упорством, неустанным стремлением и терпением, может наслаждаться ее радостями. В будущем он будет жить в комфорте и удобстве.

Ключевые слова: Профессия - ремесло, национальные традиции, творчество, способности, междисциплинарные связи, общетрудовые навыки и квалификация, технология.

Annotation: Each person can master one or more professions, and the proverb "Forty professions are not enough for one young man" also says that mastering several professions is a vital necessity. Each profession and craft has its difficulties and pleasures. Only he who overcomes difficulties with perseverance, tireless striving and patience can enjoy its joys. In the future, he will live in comfort and convenience.

Keywords: Profession - craft, national traditions, creativity, abilities, interdisciplinary connections, general work skills and qualifications, technology.

O'zbekistonning boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari, mehnat va kasb-hunar madaniyati o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Milliy an'analardan foydalanish orqali o'quvchilarda kasb – hunarga bo'lgan qiziqishlari shakllana boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2024 yil 2 fevraldagi PQ-53-son qarori ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, maktabga tadbirkorlik sub'ektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qancha qarorlar ishlab chiqilgan. Shu boisdan yoshlarning ma'naviy, axloqiy, jismoniy, ruhiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama kasb-hunar tanlashga mustaqil tayyorlash dolzarb muammodir.

Yoshlarni kasb-hunar tanlashga tayyorlashda har bir o'g'il-qiz shaxsidagi individual xususiyatlar majmuasini nazarda tutib, ularning ruhiyatidagi tug'ma imkoniyatlar, hayot davomida tarkib topgan va mustahkamlanib, xarakteriga aylanib qolgan ma'lum bir kasb-hunarga nisbatan bo'lgan layoqat, moyillik, iqtidor, iste'dod, qobiliyat, qiziqish va aql-zakovat ustunliklariga qarab kasb-hunar tanlashga yo'naltirish bugungi kunimizning xarakterli belgilaridan biri hisoblanadi.

O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasidagi insoniy fazilatlar bilan ta'limiy xarakterdagi xislatlar majmuasi o'rtasidagi o'zaro moslikning qay darajada tanlayotgan kasb-hunarga tayyorlashda fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar va mahalla faollarining shaxsiy namunasi va hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar kasbga tayyorlashning hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biridir.

Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga bo'lgan intellektual va ma'naviy ehtiyojlarini mukammalroq qondirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalariga, kasb-hunar haqida ma'lumot beruvchi o'quv markazlariga, jahon andozalari talablariga javob beradigan zavod va fabrikalarga ekskursiyalar uyushtirish, ilg'or kasb-hunar vakillari bilan uchrashuv kechalari tashkil etish, o'quvchilardagi kasb-hunarga oid tasavvur va tushunchalarini kengaytirishga alohida imkoniyat yo'llarini ochadi.

Tajribali pedagoglar har bir kasb-hunarning ijtimoiy mohiyatini yoshlar tomonidan qanday tushunib anglashlarini, ular kasb-hunar egasi sifatida kimlargadir kerakli odam sifatida, Vatan, el, yurt uchun fidoyi mehnat qilish ularning muqaddas burchlari ekanligini qalbdan his etuvchi hushyor murabbiy, barkamol pedagog sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur.

Pedagog o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ilm-fan uchun chanqoq bo'lgan, yangiliklarga intilib yashaydigan, milliy g'ururi yuksak, favqulodda holatlarda o'zini namoyon eta biladigan qobiliyatli yoshlarni aniqlashda psixologik, pedagogik tadqiqotlarning ilmiy tavsiyalarini nazarda tutib, tadbirkorlik asosida yondashadigan ijodkor, izlanuvchan, zukko, ziyrak, aql-zakovat egasi bo'lishi lozim.

Qadimdan ota-bobolarimiz bola tarbiyasida mehnatga o'rgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e'tibor berganlar. Farzandlarining layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar. Shu o'rinda har bir ota-ona oilada o'z farzandlarining qaysi kasb egasi bo'lishlariga jiddiy e'tibor berishlari zarur. Chunki bolalar biror kasbga qiziqsin, uni egallashga harakat qilishsin. Inson kasb-kori uning husni deyishadi. Mehnatsevarlik xalqimizning asosiy xislatlaridan hisoblanadi. Mehnat tufayli farzandlarimiz mustaqil hayotga erkin inson bo'lib qadam qo'yadilar. Har bir narsani o'zlari hal qilishga o'rganadilar.

Farzandlarimizda mehnatga bo'lgan munosabati dastavval oiladan boshlanadi. Tabiiyki bunda ota-ona o'z farzandiga namuna bo'lmog'i lozim. Oila a'zolarining mavqei, obro'-e'tibori, ularga nisbatan munosabat mehnat natijalari asosida bo'ladi. Inson mehnati u egallagan kasb-hunar vositasida amalga oshiriladi.

Har bir inson u yoki bu kasbni yoki bir necha kasb-hunarni egallashi mumkin, «Bir yigitga qirq hunar ham oz» degan maqolning mazmunida ham bir necha kasbni egallash hayotiy ehtiyoj ekanligiga ishora etiladi. Har bir kasbning, hunarning o'ziga xos mashaqqati va lazzati bor. Uning mashaqqatini matonat tinimsiz izlanish, sabr-toqat bilan yenggan insongina, uning lazzatidan bahra oladi. Kelajakda rohat va farog'atda yashaydi.

Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, o'quvchining har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayishi omili hamdir.

Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina o'quvchi o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi, shaxs sifatida shakllanishi mumkin.

Mehnatga psixologik, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik kabi axloqiy, irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

Mehnat qilish jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish mehnati ijtimoiy foydali mehnat turida faol ishtirok etadilar va chiniqadilar.

O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish, kasbga yo'naltirish ishlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun maktab psixologi tuman tashxis markazi bilan hamkorlikda ish olib borsa, ayni muddao bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.: "O'zbekiston". 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.02.2025 yildagi 78-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.02.2025 y., 09/25/78/0130-son.
3. Muslimov N.A. Bulajak mehnat ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish.-T.: fan, 2004 yil.
4. Тулкинова.Х. (2022). Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).
5. Tulqinova X.T. Technology in education electronics-didactic occupation means without applying the effectiveness of the organization // International Multidisciplinary scientific conference on ingenious global thoughts hosted from KualaLumpur, Malaysia. May 31st 2021: <https://conferencepublication.com>
6. Xolida, T. T., & Maftuna, N. (2022, May). ENSURING THE CONTINUITY OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN TECHNOLOGY. In *Conference Zone* (pp. 81-85).
7. Xolida.T. T., & Maftuna, A. (2022, May). THE ROLE OF CLUBS IN CAREER GUIDANCE. In *Conference Zone* (pp. 33-35).
8. Tolqunovna.T.X. (2023). Development of students' professional interests based on an innovative approach. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 19, 157-159.